

**Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnik baza**

**1. Faoliyatning litsenziyalanadigan turining barcha yo'nalishlari bo'yicha ishlarni amalga oshirish uchun litsenziat:**

xodimlarning ishlashi uchun binoga;  
 signalizatsiyaning texnik vositalarini va yong'inni o'chirish qurilmalarini hamda asboblarni saqlash uchun binoga (yoki ajratilgan joyga);  
 loyiha-smeta hujjatlarini saqlash uchun temir sandiqqa;  
 qo'riqlash-yong'in tizimlari va yong'inni o'chirishning avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohasida qonun hujjatlariga, texnik reglamentlarga, ishlarni bajarish va qabul qilish normalari va qoidalariga ega bo'lishi kerak\*.

**2. Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlash signalizatsiyalarini loyihalashtirish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziat 1-bandda ko'rsatilganlardan tashqari:**

avtomatlashtirilgan loyihalashtirish uchun dasturiy-grafik kompleksli Pentium IV shaxsiy kompyuterga (undan past emas);  
 grafik materiallarni bosish uchun qurilmaga ega bo'lishi kerak.

**3. Yong'inga qarshi avtomatika vositalarini, qo'riqlash signalizatsiyalarini, yong'indan darak beruvchi va qo'riqlash-yong'indan saqlovchi signalizatsiyalarni montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziat 1-bandda ko'rsatilganlardan tashqari quyidagi jadvalda ko'rsatilgan priborlarga, asbob-uskunalarga va vositalarga ega bo'lishi kerak:**

<b>Pribor, asbob-uskuna va vositaning nomi</b>	<b>Pribor, asbob-uskuna va vositaning turi</b>
Kombinatsiyalashtirilgan pribor	S-4312 (4311) yoki shunga o'xshash
Megommetr	M-1101M Ye6-4A yoki shunga o'xshash
Shumomer	Sh-71 yoki shunga o'xshash
Elektr kavsharlagich	Istalgan turi
Elektr perforator	Istalgan turi
Elektr parmadasta	Istalgan turi
Chilangarlik asboblari to'plami	Istalgan turi
Elektr montaj asboblari to'plami	Istalgan turi
Montaj qiluvchining kaskasi	Istalgan turi
Montaj qiluvchining kamari	Istalgan turi
Narvon	Istalgan turi
Ikki yoqqa ochiladigan narvon	Istalgan turi
Kompressor	SO-7 yoki shunga o'xshash — faqat yong'inni o'chirish qurilmalarini montaj qilish, sozlash va ta'mirlash uchun

\* Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar va normativ hujjatlar ro'yxati litsenziyalovchi organning saytida joylashtiriladi.